



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	



KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNINI VA AHAMIYATI



Isakjanova Saboxat Muhamedovna

Biznes boshqaruvi kafedrası doktoranti

E-mail: Saboxatisakjanova@gmail.ru

Annotatsiya. Maqolada kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda yosh tadbirkorlarning ushbu sohadagi faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda bugungi kunda yosh tadbirkorlar asosan qaysi yo'nalishdagi kichik biznes turlarida faoliyat yuritayotgani, ularning soha rivojiga qo'shayotgan hissasi hamda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yosh tadbirkorlikning kichik biznes rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, yoshlar tadbirkorligi, imkoniyatlar, davlat qo'llab-quvvatlashi, startap loyihalar.

Abstract. The article analyzes the role of small business in economic development and the activities of young entrepreneurs in this field. The study examines the main types of small businesses in which young entrepreneurs are currently engaged, their contribution to sectoral development, and the opportunities provided by the state. The research results confirm that youth entrepreneurship has a significant impact on the development of small business.

Key words: small business, youth entrepreneurship, opportunities, state support, startup projects.

Аннотация. В статье анализируется роль малого бизнеса в экономическом развитии, а также деятельность молодых предпринимателей в данной сфере. Рассматриваются основные направления малого бизнеса, в которых в настоящее время активно участвуют молодые предприниматели, их вклад в развитие отрасли и создаваемые государством возможности. Результаты исследования подтверждают, что молодежное предпринимательство оказывает значительное влияние на развитие малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, молодежное предпринимательство, возможности, государственная поддержка, стартап-проекты.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim strategik omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur sektor iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, kichik biznesning hududiy rivojlanishga ijobiy ta'siri mamlakat iqtisodiy muvozanatini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq va kredit mexanizmlarini soddalashtirish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu omillar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushining barqaror o'sishini ta'minlamoqda.



Shu bilan birga, kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligining o'rne va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar yuqori innovatsion salohiyatga, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi kichik biznesning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur holat kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz tadbirkorlarining 22,9 foizi (106 574 nafar) yosh tadbirkorlar (31 yoshgacha) hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkichning izchil o'sib borayotganini alohida ta'kidlash lozim bo'lib, bu holat yosh tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali natijasi ekanligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va yoshlar tadbirkorligining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rne masalalari mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Tadbirkorlikning nazariy asoslari Joseph Schumpeter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u tadbirkorni innovatsiyalarni joriy etuvchi hamda iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi. Shumpeterning "innovatsion tadbirkor" konsepsiyasi kichik biznes va yoshlar tadbirkorligi faoliyatini innovatsion jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli va uning rivojlanish omillari David Storey tomonidan tizimli ravishda o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida kichik biznes subyektlari, jumladan yosh tadbirkorlar, yangi ish o'rinlarini yaratish, bozor raqobatini kuchaytirish va iqtisodiy moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, muallif kichik biznes faoliyatida moliyaviy resurslar, amaliy tajriba va institutsional qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada shakllanmaganligi rivojlanish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

David Audretschning ilmiy ishlarida tadbirkorlik, innovatsiya va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan. U kichik biznes va startaplar innovatsion iqtisodiyotning ajralmas qismi ekanini asoslab, tadbirkorlikni rag'batlantirishda davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhitning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Audretschning yondashuvlari yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy asoslashda muhim nazariy manba hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiy adabiyotlarida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati Djalilova Shaxlo Ismoiljon qizi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda batafsil yoritilgan. Muallif kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini ilmiy asosda tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar kichik biznesni rivojlantirish jarayonida yosh tadbirkorlarning faol ishtiroki muhim ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, Bobanazarova J.X. va Zulfikarova L.F. tadqiqotlarida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati, ularning kasbiy tayyorgarligi hamda kichik biznesdagi ishtiroki masalalari yoritilgan. Mualliflar yosh tadbirkorlarning iqtisodiy faolligi mehnat bozoridagi muayyan muammolarni yumshatish va kichik biznes rivojini jadallashtirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligi innovatsion faollikni oshirish, bandlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda yoshlar tadbirkorligini kompleks baholash hamda uni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tizimli tahlil qilish masalalari yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Mazkur dissertatsiya aynan ushbu ilmiy yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy ishda tadqiqot metodologiyasi kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligining o'rne va ahamiyatini nazariy hamda empirik jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv qo'llanilib, ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida shakllantirildi.

Ikkilamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari va strategik hujjatlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, UNDP va boshqalarning hisobotlari, mahalliy hamda xorijiy ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilindi. Ushbu manbalar kichik biznes va yoshlar tadbirkorligining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini baholash uchun axborot bazasi bo'lib xizmat qildi.

Empirik tahlil jarayonida yosh tadbirkorlarning kichik biznesdagi ishtiroki, ularning faoliyat yo'nalishlari hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash maqsadida ochiq statistik ma'lumotlar va tahliliy sharhlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va qiyosiy taqqoslash usullari, iqtisodiy-statistik tahlil, shuningdek, dinamik va grafik tahlil metodlari qo'llanildi.




Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini aniqlash maqsadida kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichlari bilan yosh tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Qo'llanilgan metodlar yoshlar tadbirkorligining kichik biznes rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarning iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligining o'rnini tahlil qilishda, avvalo, mamlakatda kichik biznes subyektlari qaysi iqtisodiy sohalarida faoliyat yuritayotganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh tadbirkorlarning asosiy qismi kichik biznesning nisbatan ommabop hamda bozorga kirish imkoniyati yuqori bo'lgan yo'nalishlarida faoliyat olib boradi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tadbirkorligi faoliyatini baholashda kichik biznes subyektlarining sohalar bo'yicha tarkibi muhim tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari asosan savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish hamda xizmatlar sohalarida jamlangan. Mazkur yo'nalishlar nisbatan kam boshlang'ich kapital talab qilishi, bozorga tez kirish imkoniyati va barqaror talab mavjudligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, savdo va xizmatlar sohasi yosh tadbirkorlar uchun eng jozibador va qulay yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti keltirilgan bo'lib, mazkur ma'lumotlar yosh tadbirkorlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ularni tahlil qilishda muhim statistik asos vazifasini bajaradi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining sohalar bo'yicha taqsimoti¹

1-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari asosan savdo va xizmatlar sohalarida faoliyat yuritadi. Ushbu sohalar boshlang'ich kapital talabining nisbatan pastligi, bozorga tez kirish imkoniyati hamda barqaror talab mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, sanoat va qurilish sohalarida yosh tadbirkorlarning ulushi nisbatan past bo'lib, bu holat mazkur yo'nalishlarda katta moliyaviy resurslar va yuqori texnologik kompetensiyalar talab etilishi bilan izohlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yosh tadbirkorlarning kichik biznesning turli yo'nalishlarida jamlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga ijobiy hissa qo'shadi hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, davlat va xususiy sektor tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, xususan, moliyaviy, raqamli va institutsional rag'batlantirish mexanizmlari orqali, ularning faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Muallif ishlanmasi



Quyidagi jadvalda yoshlar tadbirkorligi faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli tarzda keltirilgan. Mazkur omillar moliyaviy, raqamli va institutsional imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lib, yosh tadbirkorlarning kichik biznes sohalaridagi faoliyatini kengaytirish hamda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Yosh tadbirkorlik faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar²

Omil guruhi	Tavsif	Ta'sir yo'nalishi
Moliyaviy imkoniyatlar	Kreditlar, grantlar, subsidiyalar yosh tadbirkorlarni boshlang'ich resurs bilan ta'minlaydi	Faoliyatni boshlash va kengaytirish
Raqamli imkoniyatlar	Onlayn platformalar, e-commerce, CRM tizimlari bozorga tez kirishni ta'minlaydi	Bozorga chiqish, xarajatlarni kamaytirish
Institutsional imkoniyatlar	Texnoparklar, biznes inkubatorlar, konsalting va universitet–biznes hamkorligi	Malaka oshirish, innovatsion yechimlarni qo'llash
Boshqaruv va bilim	Treninglar, mentoring, loyiha boshqaruvi yosh tadbirkorlarni strategik qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi	Samarali boshqaruv va jarayonlarni tizimlash

Ushbu jadval yosh tadbirkorlar faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli tarzda aks ettiradi. Jadvalda keltirilgan omillar — ta'lim va malaka darajasi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, bozor sharoitlari, texnologik imkoniyatlar hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari — mavjud ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar asosida aniqlangan. Ushbu omillar o'zaro uyg'un holda yosh tadbirkorlarning muvaffaqiyati va innovatsion faolligini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur omillar orasida, ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditlar, subsidiyalar va davlat tomonidan yosh tadbirkorlarga taqdim etilayotgan moliyaviy ko'maklar ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va kengaytirishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ta'kidlash joizki, davlat tomonidan kichik biznes subyektlari, ayniqsa yosh tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar ularni yangi tashabbuslarni amalga oshirishga va ma'lum darajada tavakkalchilikka tayyor bo'lishga undaydi.

Xususan, 2025-yilda Prezident qaroriga muvofiq Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi (State Targeted Fund for the Development of Youth Entrepreneurship) tashkil etilib, unga 100 million AQSh dollari miqdorida kapital ajratildi. Mazkur jamg'arma yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, startup loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, AloqaBank negizida "Yoshlar banki" mexanizmi shakllantirilib, u yosh tadbirkorlar uchun 100 million so'mgacha bo'lgan imtiyozli mikroqarzlarni 7 yilgacha muddatga taqdim etmoqda. Ushbu moliyaviy imkoniyat kichik biznesni boshlashni rejalashtirayotgan yoshlar uchun muhim resurs hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy institutlar ham O'zbekistonda yosh tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilayotgan Youth in Business (YiB) dasturi doirasida 10–20 million AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy paketlar yosh tadbirkorlik subyektlariga yo'naltirilmoqda. Mazkur mablag'lar kreditlar va biznesni rivojlantirishga qaratilgan konsalting hamda institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida yosh tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi jadal rivojlanib bormoqda. Davlat jamg'armalari, imtiyozli kreditlar, bank mikroqarzlari va xalqaro moliyaviy dasturlar yosh tadbirkorlarning startup loyihalarini amalga oshirish, biznes faoliyatini kengaytirish hamda innovatsion g'oyalarni bozorga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari yosh tadbirkorlik faolligiga ta'sir etuvchi omillar tizimida strategik resurs sifatida baholanadi. Chunki kichik yoki o'rta biznesni yo'lga qo'yish jarayonida moliyaviy ta'minot eng muhim boshlang'ich omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tadbirkorligi kichik biznesning raqobatbardoshligi va barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim drayverlardan biri hisoblanadi. Uni tizimli va izchil qo'llab-quvvatlash O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv hamda innovatsion rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadval ma'lumotlari asosida izohlanadi.

² Jadval muallif tomonidan Zuraidah et al. (2025), Kafle (2024), Aitzhanova et al. (2023) hamda UNDP (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili va adabiyotlar sharhi asosida yaratilgan

2-jadval. Kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligining asosiy xulosa natijalari³

Ko'rsatkichlar	Tadqiqot natijalari	Iqtisodiy ahamiyati
Yosh tadbirkorlar ulushi	31 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar ulushi 22,9% (106 574 nafar)	Kichik biznesda yoshlar faolligining yuqoriligi va bandlikka ijobiy ta'sir
Asosiy faoliyat yo'nalishlari	Savdo va xizmatlar sohalarida jamlanish ustun	Bozorga tez kirish va iqtisodiy faollikning oshishi
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi (100 mln AQSh dollari), "Yoshlar banki" mikroqarzlar	Biznesni boshlash va kengaytirish imkoniyatlarining kengayishi

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligi kichik biznes rivojida muhim o'rin egallaydi. Tadbirkorlarning qariyb chorak qismini 31 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishi mazkur qatlamning iqtisodiy faolligi nisbatan yuqori ekanini tasdiqlaydi. Yosh tadbirkorlarning asosan savdo va xizmatlar sohalarida faoliyat yuritishi ushbu yo'nalishlarning boshlang'ich kapital talabi pastligi hamda bozorga tez kirish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi hamda "Yoshlar banki" mexanizmi orqali taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokidagi dasturlar esa yoshlar tadbirkorligining institutsional barqarorligini mustahkamlab, kichik biznesning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [Yosh tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash portali \(rasmiy platforma\)](#) — Yosh tadbirkorlar uchun moliyaviy va axborot qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar, ventur investitsiyalar, grantlar va ta'lim hamda mentorlik dasturlari haqida ma'lumotlar jamlangan rasmiy platforma ma'lumotlari.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1934.
3. Audretsch D.B. Entrepreneurship and Economic Growth. — Oxford: Oxford University Press, 2007.
4. Djalilova Sh.I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2021. — № 3.
5. Bobanazarova J.X., Zulfikarova L.F. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — Toshkent, 2020. — № 4.
6. [Uzbekistan to establish Youth Entrepreneurship Development Fund with \\$100 million capital](#) — 2025-yilda Prezident qarori bilan moliyaviy resurslari 100 million AQSh dollari ekvivalentiga yetkazilgan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat jamg'armasi tashkil etilishi hamda yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar.
7. [Uzbekistan's efforts to combat youth unemployment reach a new phase \(kun.uz\)](#) — "Youth Business" dasturi doirasida yoshlar bandligini oshirish, imtiyozli mikroqarzlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi haqida yangilangan ma'lumotlar.
8. [EBRD promotes youth entrepreneurship in Uzbekistan](#) — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan O'zbekiston yosh tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida moliyaviy paketlar va qo'llab-quvvatlash choralari haqida xabarlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>